

**BOSHLANG`ICH SINF O`QISH DARSLARIDA O`QUVCHILARNING  
BOG`LANISHLI NUTQ MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH**

*Abdurashidova Feruza Qaxramonovna  
Toshkent shahar Shayxontoxur tumani  
Xalqaro islom akademiyasi qoshidagi  
"Ziyo-Zukko umumta'lim maktabi"  
NTM boshlang`ich sinf o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang`ich sinf o`qish darslarida bog`lanishli nutq malakasini shakllantirish masalalari muhokama etiladi hamda metodologik tahlil olib boriladi.

**Kalit so‘zlar:** Bog`lanishli nutq, boshlang`ich sinf, o`qitish, metod.

### **KIRISH**

Boshlang`ich sinf o`qituvchilar o‘z ish faoliyatida yangi usul va metodlarni tanlab, o‘quvchilarning nutqi, hissiy idrok qilishi va intellektual rivojlanishi uchun darslarni diversifikatsiya qilishga urinadilar. Buning uchun o‘zbek xalq ertaklarida frazeologik iboralar bilan uchrashganligi sababli o‘quvchilarning frazeologik birikmalarga murojaat qilish foydalidir. Masalan, *og‘zi qulog‘ida, burni ko‘tarilgan kabi*. Bu iboralarning ma’nosini to‘liq anglash uchun ular badiiy asarga murojaat etishlari lozim. Ba’zi hollarda frazeologik birikmalar etimologiyasi va ular anglatadigan ma’no o‘quvchilar nutqini boyitishi qatori ulardagi qiziquvchanlik va kuzatish sifatlarining ham rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Bunday darslardan so‘ng bolalarda yangi so‘z va iboralarni o‘rganishga rag‘bat paydo bo‘ladi va mustahkamlanadi. Tavsiya etilgan dars parchalari aniq maqsadga ega: o‘quvchilarning so‘z boyligini rivojlantirish va kengaytirish zarurligi nazarda tutiladi.

M.Saidovning yozishicha, ona tili darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy tafakkur qilishga, fikrni nutq sharoitiga muvofiq holda og‘zaki va yozma shaklda ifodalashga o‘rgatishdir. Muallif o‘quv topshiriqlari amaliy maqsadlarga, ya’ni o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilishi zarurligini ta’kidlar ekan, lug‘at boyligini kengaytirish, so‘zni o‘rnida qo’llash, gaplarni kengaytirish va toraytirish, mazmunini saqlagan holda shaklini o‘zgartirishdan iboratligiga urg‘u qaratadi. Nutqiy faoliyatni rivojlantirishga doir vazifalar ishlab chiqarish jarayonining sodda va ilmiy tasvirini bera olish, kuzatgan, o‘qigan yoki eshitgan voqeа-hodisalarini tahlil qilishga oid o‘quv topshiriqlari sirasiga kiradi [1].

Boshlang`ich sinf o‘quvchilarining bog`lanishli nutqini rivojlantirish ta’lim-

tarbiya ishlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bois barcha turdag'i ishlar o'quvchilarning faol ishtirokida amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchilarning muloqotga jalg' etilishini ta'minlashi, o'zbek tilida so'zlashishdan cho'chimasligini uqtirishi kerak. Masalan, sifatlarni o'rganishda vazifalar foydali va qiziqarli bo'lishi kerak: ot so'z turkumiga quyidagi belgilarni bildiruvchi sifatlarni qo'llash: *bo'y, belgi, millat, aql* va boshqalar. (Bolalar *baland, past, mehribon* va hokazo so'zlarni doskaga va daftarlarga tanlab yozadilar).

Ushbu sifatlarning lug'aviy ma'nosi tushuntiriladi. Bolalarga matnlar tanlash taklif etiladi: *Deraza oynasidan novdalar sinfxonaga qaraydi. Ular yam-yashil rangda. Yozing, sifatlarni toping, atributni belgilang.*

Shuningdek, quyidagi mazmundagi mashqlar yozma nutq rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tajribalardan ham yaxshi ma'lum:

1-mashq. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

1. Shahrizmida yangi binolar quril... (-moqda, -ni).
2. Poytaxtimiz go'zal bo'l... (-gan, -moqda).
3. Yurtimizda meva va sabzavotlardan mo'l hosil olin ... (-adi, -ing) [2].

Yangi vazifa sifatida hikoya tuzish va yozish yuklatiladi. Bu ish turi o'quvchilarda ijobiy his-tuyg'u va motivatsiyani uyg'otadi, nutqni yaxshi rivojlantiradi. Holbuki, bolalarni milliy ildizlar bilan bog'lash kerak. O'zbek tilini o'qitish jarayonining etnomadaniy yo'nalishi zamonaviy gumanitar ta'limning muhim va dolzarb vazifasi bo'lib, ko'p millatli mintaqa, ko'p tilli O'zbekiston sharoitida uning ahamiyati ortib bormoqda.

Etnomadaniy meros, avvalo, tilning leksik tarkibida, uning xususiy ma'nolariga ko'ra farqlanuvchi jihatlarini tahlil qilishda, jumladan, so'z va uning leksik ma'nosini o'rganishda o'zbek xalqning milliy ruhini o'zida mujassam etuvchi matnlarga murojaat qilishni misol tarzida ko'rsatish mumkin. Bunda o'zbekona an'ana, qadriyat, urf-odat va marosimlarning ahamiyati ko'zda tutiladi. Jarayonning muvaffaqiyatli kechishi o'qituvchining ijodkorligi, o'z ustida mustaqil ishlashi, novatorligi va kasbiy tayyorligiga bog'liq.

G'.Hamroev to'g'ri ko'rsatganidek, o'quvchilar nutqiy malakalarining shakllanishiga zamin yaratuvchi fonetika, imlo, talaffuz, punktuatsiya bo'limlarini o'qitishda mashqlardan muntazam foydalanish, qolgan bo'limlarni esa, topshiriqlar asosida o'qitish samaraliroq natija berishi asosiy vazifadir [2].

Quyidagi vazifani bajarish orqali o'quvchilar matn tuzish ko'nikmalarini egallab oladilar hamda bog'lanishli nutq sohibiga aylanadi:

*Birinchi chivin. Quyosh yanada kuchliroq isiy boshladi. Oqimlar ming'irladi. Birinchi qushlar keldi. Oftob ro'ychang bosgan burchak kaqaradi, bir chivin uyg'onib ketdi. U yerda qish bo'yil uxladi. Pashsha emaklab chang bilan qoplangan tosh ustiga uyqusirab va sekin chiqibdi. U derazadan oftobda qizishib, uchib, ming'illab*

*g‘uvilladi.*

Og‘zaki hikoya tuzish ko‘nikmasini hosil qilish uchun o‘qituvchi ekskursiyalarda tashkil etiladigan kuzatishlardan foydalanadi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Shunday qilib, o`qish darslarida bolalarni mantiqiy fikrlash asosida bog`lanishli nutqini shakllantirish samarali usul bo`lib, bolalarning kelgusi nutqiy asoslarini belgilab beruvchi omil bo`lib xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Saidov M. O‘zbek mакtablarining 5-sinfda ona tilita’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi. Ped. fan. nomz diss. Toshkent, 2010. – 147 b.
2. Hamroev G‘.H. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida fonetikaga doir o‘quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirish. Ped. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD). – Samarqand, 2019. – 52 b.
3. O.Yeshimbetov. boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zbek tilidan bog‘lanishli nutqini rivojlantirish metodikasi. (ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar misolida) Ped. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) ... diss. Toshkent, 2022. – 119 b.